

TARIXIY TAJRIBADA MILLATLARARO TOTUVLIK VA DAVLAT BARQARORLIGI

Yadgarova Rahima Djalolovna

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

Tarix yoʻnalishi 2 - kurs magistranti.

e-mail: yadgarova.r@aifuuniversiteti.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19948825>

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarixiy tajriba asosida millatlararo totuvlik va uning davlat barqarorligidagi oʻrni tahlil qilinadi. Millatlararo munosabatlarning jamiyat taraqqiyotiga taʼsiri, bagʻrikenglik va oʻzaro hurmat tamoyillarining ahamiyati ilmiy jihatdan asoslanadi.

Shuningdek, Oʻzbekiston misolida mazkur sohada amalga oshirilayotgan davlat siyosati, huquqiy asoslar va institutsional islohotlar yoritib beriladi.

Kalit soʻzlar: millatlararo totuvlik, bagʻrikenglik, davlat barqarorligi, ijtimoiy barqarorlik, millatlararo munosabatlar, Oʻzbekiston, davlat siyosati, globallashuv, madaniy xilma-xillik, fuqarolik jamiyati.

Аннотация. В данной статье на основе исторического опыта анализируется межэтническая гармония и её роль в обеспечении стабильности государства. Научно обоснованы влияние межэтнических отношений на развитие общества, важность принципов толерантности и взаимного уважения. Также на примере Узбекистана освещены государственная политика, правовая база и институциональные реформы, проводимые в этой области.

Ключевые слова: межэтническая гармония, толерантность, стабильность государства, социальная стабильность, межэтнические отношения, Узбекистан, государственная политика, глобализация, культурное разнообразие, гражданское общество.

Abstract. This article analyzes interethnic harmony and its role in state stability based on historical experience. The impact of interethnic relations on the development of society, the importance of the principles of tolerance and mutual respect are scientifically substantiated. Also, the state policy, legal framework and institutional reforms implemented in this area are highlighted using the example of Uzbekistan.

Keywords: interethnic harmony, tolerance, state stability, social stability, interethnic relations, Uzbekistan, state policy, globalization, cultural diversity, civil society.

Jahon tarixi shuni koʻrsatadiki, turli millat va elat vakillarining bir davlat hududida tinch-totuv va hamjihatlikda yashashi jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Ayniqsa, XXI asrda globallashuv jarayonlarining kuchayishi, madaniy va sivilizatsion aloqalarning kengayishi millatlararo munosabatlarda bagʻrikenglik va oʻzaro hurmat tamoyillarini rivojlantirishni dolzarb masalaga aylantirdi. Shu nuqtai nazardan, jamiyatda turli millat va elatlarning huquq va manfaatlarini taʼminlash, ularning tili, madaniyati va tarixiga nisbatan hurmat bilan munosabatda boʻlish demokratik taraqqiyotning muhim koʻrsatkichi sifatida namoyon boʻladi.

Bugungi kunda Oʻzbekiston koʻp millatli davlat sifatida shakllangan boʻlib, uning hududida 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi.

Bu esa mamlakatda millatlararo munosabatlarni samarali tartibga solish, totuvlik va bag'rikenglik muhitini mustahkamlashni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirgan[1].

So'nggi yillarda ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar jamiyatda do'stlik muhitini mustahkamlash, ko'p millatli yagona oila g'oyasini qaror toptirish hamda xalqaro madaniy-ma'rifiy aloqalarni kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Xususan, 2017 yil 19 maydagi farmon hamda 2019 yil 15 noyabrdagi farmon millatlararo munosabatlarni tizimli ravishda rivojlantirishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qildi.

Mazkur hujjatlar jamiyatda barqarorlik, tinchlik va totuvlikni ta'minlash, fuqarolarda ko'p millatli yagona oilaga mansublik tuyg'usini mustahkamlash, milliy madaniy markazlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash va tashqi madaniy aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan.

Ushbu islohotlarning institutsional ifodasi sifatida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil etildi. Mazkur qo'mita ilgari faoliyat yuritgan Respublika baynalmilal madaniyat markazi hamda xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik jamiyatlari negizida shakllantirilib, bu sohada yagona muvofiqlashtiruvchi organ sifatida faoliyat yurita boshladi.

Natijada milliy madaniy markazlar, do'stlik jamiyatlari va xalqaro aloqalarni rivojlantiruvchi tuzilmalarning faoliyati yanada samarali yo'lga qo'yildi.

Hozirgi kunda qo'mita mamlakatdagi 150 dan ortiq milliy madaniy markazlar, o'nlab do'stlik jamiyatlari hamda xorijdagi vatandoshlar tashkilotlari bilan hamkorlik olib bormoqda. Bu esa nafaqat mamlakat ichida millatlararo totuvlikni mustahkamlash, balki xalqaro maydonda ham O'zbekistonning ijobiy imijini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017 yil 19 sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surilgan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusi xalqaro miqyosda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu tashabbus jahon hamjamiyati tomonidan keng qo'llab-quvvatlanib, 2018 yil 12 dekabrda Bosh Assambleyaning 73-sessiyasi 51-yig'ilishida mazkur rezolyutsiya 193 ta a'zo davlat tomonidan yakdillik bilan qabul qilindi[2]. Bu holat O'zbekistonning global miqyosda bag'rikenglik va millatlararo hamjihatlikni ilgari surishdagi faol pozitsiyasini namoyon etadi.

Millatlararo totuvlikni ta'minlash masalasi O'zbekistonning zamonaviy taraqqiyot strategiyasining ajralmas qismi sifatida shakllangan. Xususan, "2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" doirasida mazkur sohani rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamlı meyorıy-huquqıy baza yaratıldı.

Ushbu davr mobaynida 40 dan ortiq meyorıy-huquqıy hujjatlar, jumladan, 2 ta qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 9 ta farmoni va 8 ta qarori, Vazirlar Mahkamasining 20 ta qarori hamda Oliy Majlisning 3 ta qarori qabul qilingani sohaga bo'lgan e'tiborning yuqori darajasini ko'rsatadi[4].

Mazkur siyosatning mantiqiy davomi sifatida Prezidentning 2020 yil 29 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga taqdim etgan Murojaatnomasida millatlararo totuvlik va bag'rikenglik muhitini yanada mustahkamlash zarurati alohida ta'kidlandi. Shu munosabat bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan har yili 30 iyul sanasining "Xalqaro do'stlik kuni" sifatida nishonlanishi inobatga olinib, uni mamlakatda "Xalqlar do'stligi kuni" sifatida belgilash taklifi ilgari surildi[3].

Natijada O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 10 fevraldagi Qonuniga muvofiq 30 iyul sanasi rasman “Xalqlar do‘stligi kuni” etib belgilandi. So‘nggi yillarda mazkur sana munosabati bilan “Do‘stlik” haftaligi va “Do‘stlik” xalqaro forum-festivali kabi yirik tadbirlar muntazam ravishda o‘tkazilmoqda. Shu bilan birga, davlat tomonidan “Xalqlar do‘stligi” ko‘krak nishoni ta‘sis etildi.

Ushbu mukofot bilan millatlararo totuvlikni mustahkamlash, milliy madaniy markazlar va do‘stlik jamiyatlari faoliyatini rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirishga munosib hissa qo‘shgan shaxslar taqdirlanmoqda[6].

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, mustaqillik yillarida milliy madaniy markazlarning 500 dan ortiq faollari davlat mukofotlari bilan taqdirlangan bo‘lib, ularning 14 nafariga “O‘zbekiston Qahramoni” yuksak unvoni berilgan. Bu holat jamiyatda millatlararo totuvlikni ta‘minlashga qaratilgan sa‘y-harakatlar davlat darajasida e‘tirof etilayotganini ko‘rsatadi[5].

Ta‘lim sohasida ham ko‘p millatlilik tamoyili izchil ta‘minlanmoqda. Xususan, mamlakatdagi 10 mingdan ortiq umumta‘lim maktablarining qariyb 2 mingtasida ta‘lim qardosh tillarda olib borilib, jami 7 tilda (o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, tojik, turkman tillarida) dars o‘tish yo‘lga qo‘yilgan.

Oliy ta‘lim tizimida ham milliy tillarda ta‘lim beruvchi fakultet va bo‘limlar faoliyat yuritmoqda bo‘lib, ularning sezilarli qismi mustaqillik yillarida tashkil etilgan. Shuningdek, teleradio eshittirishlar 12 tilda, bosma ommaviy axborot vositalari esa 14 dan ortiq tilda faoliyat yuritmoqda [5].

Ilmiy-tadqiqot va kadrlar tayyorlash sohasida ham muhim qadamlar qo‘yildi. Jumladan, 2019–2020 o‘quv yilidan boshlab oliy ta‘lim muassasalarida antropologiya va etnologiya yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash tizimi joriy etildi. O‘zbekiston Milliy universitetida “Amaliyot etnologiyasi” laboratoriyasi hamda “Antropologiya va etnologiya” kafedrasini tashkil etildi.

Ushbu ilmiy tuzilmalarning asosiy maqsadi mamlakatdagi millatlararo munosabatlarni ilmiy tahlil qilish, ehtimoliy etnik ziddiyatlarning oldini olish va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Shunday qilib, O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar huquqiy, institutsional va ma‘naviy asoslar uyg‘unligida rivojlanib, jamiyat barqarorligi va davlat taraqqiyotining muhim omili sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik jamiyat barqarorligi hamda davlat taraqqiyotining muhim omili ekani namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston misolida ko‘rilganidek, mazkur sohada olib borilayotgan izchil davlat siyosati, huquqiy asoslar va amaliy chora-tadbirlar jamiyatda tinchlik, o‘zaro hurmat va birdamlik muhitini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu bois, millatlararo hamjihatlikni ta‘minlash va uni yanada rivojlantirish har qanday davlatning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qolaveradi.

Adabiyotlar ro‘yhati.

1. Mirziyoyev Sh.M Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464-b.
2. Ma‘rifat va bag‘rikenglik – yangi O‘zbekistonning tashrif qog‘ozi.
<https://www.iiu.uz/oz/news/3660>

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/oz/lists/view/4057>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 07-fevraldagi PF-4947-sonli “2017 - 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-3107036>
5. O‘zbekistonda istiqomat qiluvchi 130 ta millat va elatlarning tili, urf-odati an‘analariga hurmat bilan qaraladi. <https://www.uzbekistan.org.ua/uz>.
6. O‘zbekistonda istiqomat qiluvchi 130 ta millat va elatlarning tili, urf-odati an‘analariga hurmat bilan qaraladi. <https://www.uzbekistan.org.ua/uz>.
7. Xalqlar do‘stligi kuni. <https://gov.uz/oz/madaniyat/news/view/17580>